

PUDRAT SHARTNOMASI № 14

« 22 » noyabr 2022 yil

Toshkent sh.

Keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladigan **M. Ulugbek tumani Tibbiyot birlashmasi Markaziy ko'p tarmoqli poliklinika** nomidan nizom asosida ish yurituvchi **y.v.b. Kadirov F.U.** bir tomondan va keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladigan **"Roofman brothers" mchi** nomidan nizom asosida ish ko'ruvchi direktori **Ernazarov Kh.** ikkinchi tomondan, mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

I. SHARTNOMA MAVZUSI

1.1. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga muvofiq – **"M. Ulugbek tumani Tibbiyot birlashmasi Markaziy ko'p tarmoqli poliklinika noturar binosini joriy ta'mirlash"** majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

II. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI

2.1. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajarilgan, tanlov savdosi natijasida aniqlangan va tanlov komissiyasining qarori bilan tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar, yigimlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan holda joriy narxlarda – **457,577,160 (To'rt yuz ellik etti million besh yuz etmish etti ming bir yuz etmish) so'm 15% QQS bilan.**

2.2. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

- qurilish qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda;
- ishlar hajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

2.3. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

III. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI

3.1. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi mazkur shartnomaning I bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

- barcha ishlarni mazkur shartnomada nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda o'zining kuchlari bilan bajarish hamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish;
- mazkur shartnoma bo'yicha obyektni foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab 10 kun muddatda ta'mirlash maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob-uskunalar, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar, konstruktsiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish;
- mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

3.2. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan zarur tarzda bajarilishi hamda obyektni topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

IV. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI

4.1. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

- mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda mazkur shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish uchun maydonini Pudratchiga berish, tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;

- shartnomaga muvofiq avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish; mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi.

V. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI

- 5.1. Shartnoma tomonlar uni imzolagan paytdan boshlab shartnoma qonun hujjatlariga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin kuchga kiradi.
- 5.2. Pudratchi avans to'lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.
- 5.3. Tanlov savdolari natijasi bo'yicha aniqlangan qurilishning davom etish vaqti ishlar boshlangan kundan e'tiboran 20 ish kunini tashkil etadi.

VI. TO'LOVLAR VA HISOB-KITOBLAR

- 6.1. Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma imzolangan kundan boshlab 10 kun ichida 30 foiz avans o'tkazadi.
- 6.2. Ta'mirlanayotgan obyektning qolgan 70 foizi uchun Buyurtmachi va Pudratchi o'rtasidagi uzil-kesil hisob-kitob ta'mirlash ishlari tugallangandan keyin va ob'ekt buyurtmachi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilingandan keyin hisob-faktura va bajarilgan ishlar dalolatnomasi asosida amalga oshiriladi.

VII. ISHLARNI BAJARISH

- 7.2. Pudratchi ishlarni bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaning V bo'limida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasi va jadvaliga binoan obyektida ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.
- 7.3. Pudratchi obyektida ishlarni olib borish tartibini davlat arxitektura-qurilish nazorati organlari bilan kelishadi va unga rioya etilishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.
- 7.4. Ta'mirlash maydonida umumiy tartibni ta'minlash Pudratchining vazifasi hisoblanadi.
- 7.5. Ta'mirlash maydonida ishlarni bajarish davrida kommunikatsiyalarni ulashni Pudratchi amalga oshiradi.
- 7.6. Pudratchi o'zi tomonidan qurilishda ho'llaniladigan qurilish materiallari, asbob- uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruktsiyalar va tizimlar sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spetsifikatsiyalarga, davlat standartlariga, texnik shartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlariga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.
- 7.7. Agar Buyurtmachi Pudratchi tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u holda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir. Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa Pudratchi ularni tuzatishning kechikishi oqibatida etkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.
- 7.8. Pudratchi ta'mirlash maydonini va unga tutash ko'cha polosasini, shu jumladan yo'l uchastkalari va yo'laklarni supurib-sidiradi va ozoda saqlaydi, qurilish davrida, maydondan qurilish axlatini Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan joyga chiqarib tashlaydi.

7.9. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarning borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida ahamiyatga ega bo'lgan hollar va holatlar (ishlarning boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi sanasi, ishlarning qabul qilib olinishi, materiallar o'z vaqtida etkazib berilmasligi bilan bogliq to'xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi to'grisidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha malumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qoniqmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi. Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora- tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

VIII. ISHLAR QO'RIQLASH

8.1. Pudratchi ishlar boshlanishidan qurilish tugallangungacha va qurilishi tugallangan obyekt Buyurtmachi tomonidan qabul qilib olingunga qadar chetlari to'silgan qurilish maydoni hududida materiallar, asbob-uskunalar, qurilish texnikasi va boshqa mol-mulk zarur darajada qo'riqlanishini ta'minlaydi.

8.2. Tiklangan binolar va imoratlar, shuningdek materiallar, asbob-uskunalar va boshqa mol-mulk obyekt qabul qilib olinganidan keyin saqlanishi uchun Buyurtmachi javob beradi.

IX. TOMONLARNING MULKIY JAVOB ARLIGI

9.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon:

- ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi:

- O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'qrisida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

9.2. Mazkur shartnomada ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0.4 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning) umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

- Penya to'lanishi Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli etkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

9.3. Pudratchi obyektini o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0.5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ob'ekt shartnomaviy joriy qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

- Buyurtmachi tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagani uchun Pudratchi buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 0.5 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi kerak.

- Penya to'lash Pudratchini ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishshshg kechikishi tufayli etkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

9.4. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga boshqa tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalanadigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

9.5. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

X. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

10.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

10.2. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rilishini muhokama qiladilar.

10.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

XI. TA'MIRLANISHI TUGALLANGAN OBYEKTNI QABUL QILIB OLISH

11.1. Ta'mirlash tugallangan obyektni qabul qilib olish shartnomani imzolash sanasida amalda bo'lgan belgilangan tartibga muvofiq mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlar tomonlar tarafidan bajarilgandan keyin, shuningdek ta'mirlash tugallangan obyektlarni foydalanishga qabul qilib olishni belgilangan qoidalariga binoan amalga oshiriladi.

11.2. Obyektlar ularning foydalanishga tayyorligi to'g'risida Pudratchining yozma bildirishnomasi Buyurtmachi tomonidan olingan kundan boshlab 3 kun mobaynida qabul qilib olinadi.

11.3. Qabul qilib olingan paytdan boshlab obyekt Buyurtmachining mulkiga aylanadi.

XII. KAFOLATLAR

12.1. Pudratchi:

- barcha ishlar to'liq hajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;
- loyiha hujjatlariga hamda qurilish me'yorlari, qoidalar va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatini;
- o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi tommlar, kons'gruktsiya va tizimlar sifatini, ularning loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatlariga, davlat standartlariga hamda texnik shartlarga muvofiqligini;
- ishlarni qabul qilish va obyektidan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni;
- obyektidan foydalanilganda muhandislik tizimlari va uskunalarning foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

12.2. Obyekt va unga kiradigan muhandislik tizimlari, asbob-uskunalar, materiallardan foydalanish va ishlarning kafolatli muddati tomonlar qurilishi tugallangan obyektни qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab kechikmagan holda kamida 1 yil etib belgilanadi.

12.3. Agar obyektдан foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, ular bartaraf etilgunga qadar foydalanishni davom ettirish imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u holda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi. Nuqsonlar Pudratchi tomonidan o'z hisobidan bartaraf etiladi.

12.4. Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

XIII. SHARTNOMANI BEKOR QILISH

13.1. Buyurtmachi:

- shartnoma kuchga kirgandan keyin qurilishning boshlanishi buyurtmachiga bogliq bo'lmagan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;
- ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan holda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;
- Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

13.2. Pudratchi:

- ishlarning bajarilishi Pudratchiga bogliq bo'lmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda;
- Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

13.3. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

13.4. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

13.5. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

XIV. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

14.1. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek, yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar hal etolmasa ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

XV. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH BO'YICHA BANDLAR

15.1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish doirasida tomonlar korruptsiyaga qarshi kurashish qoidalariga, shu jumladan amaldagi qonunchilikka rioya etilishini ta'minlaydi; ularning xodimlari, filiallari, benefitsiarlari va ularning sheriklari, shartnomani bajarish bo'yicha kontragentlar pora berish yoki olish, tijorat poraxo'rlik, pora olishda vositachilik qilish, davlat organi, davlat

ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berishdan voz kechishlarini ta'minlash; yoki moddiy yoki nomoddiy foyda olish. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo'yicha choralar ko'rishni kafolatlaydi.

15.2. Tomonlar korrupsiyaga qarshi kurash qoidalari buzilgan yoki asosli shubhalar yuzaga kelgan taqdirda bir-birlarini darhol yozma ravishda (anticorruption@uks.uz elektron pochta orqali) yoki telefon orqali (+9978-140-74-48) xabardor qilish majburiyatini oladilar. Tomonlar vaziyatga oydinlik kiritish maqsadida yozma tushuntirish so'rashga haqli. murojaatni qabul qilgan Tomon esa 10 (o'n) ish kuni ichida o'z fikri bo'yicha bayonot berishi yoki izoh berishi mumkin.

15.3. Ushbu moddaning talablari, shu jumladan, korrupsiya xavfini belgilangan muddatda bartaraf etish, tomonlar tomonidan korrupsiyaga oid vaziyatning pasayishiga olib kelmagan choralar ko'rilmagan taqdirda, boshqa tomon o'z faoliyatini tugatish, shartnomani tuzish yoki uning bajarilishini to'xtatib turishga haqli.

15.4. Ushbu moddada nazarda tutilgan asoslar bo'yicha shartnomani bir tomonlama bekor qilishni talab qilgan tarafga yetkazilgan zararni qoplash ushbu shartnomaning 9-qismida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi, shu bilan birga ushbu moddada nazarda tutilgan majburiyatlarni buzgan tomon shartnomani bir tomonlama bekor qilish natijasida etkazilgan zararlar uchun kompensatsiyani talab qilishga haqli emas.

XVI. ALOHIDA SHARTLAR

16.1. Mazkur shartnoma imzolanganidan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

16.2. Pudratchi kurilish ob'ektiga yoki uning alohida qismlariga tegishli ish hujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish huquqiga ega bo'lmaydi.

16.3. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

16.4. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

16.5. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi va 2022 yilning 31 dekabriga qadar amal qiladi.

XVII. TOMONLAR BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI:

PUDRATCHI	BUYURTMACHI:
«ROOFMAN BROTHERS» MCHJ	M. Ulugbek tumani Tibbiyot birlashmasi
Toshkent sh. M. Ulugbek tumani Feruza	Markaziy ko'p tarmoqli poliklinika
kuchasi 2 uy	Adres: M. Ulugbek tumani TTZ-2
H/R 20 20 80 00 90 08 28 84 30 01	H/R: 2340 2000 3001 0000 1010
HATB «DAVR BANK» Olmazor filiali	SH/R: 100022860262697072110054003
MFO – 01121 INN -305 220 387	Markaziy bank, Toshkent sh. HKKM
QQS Tulovchisi kodi : 32 60 20 01 40 33	MFO: 0001 INN: 200540938
Direktor : _____ Ernazarov Kh.	INN: 201122919 OKED:91314
Imzo _____	M. Ulugbek tumani Tibbiyot birlashmasi
	Boshqaruvi: _____ Kadirov F.U.
	Imzo _____

ООО « ROOFMAN BROTHERS »

g. TASHKENT M.Ulugbekskiy rayon massiv Feruza dom № 2 tel: + 998 99 887-95-74

p/c 20208000900828843001 XATB «Dayr bank» Almazarskiy filial INN 305220387

12.11.2022 y.

Mirza Ulugbek tumani
Kup Tarmoqli
tibbiyot birlashmasi
xarid komissiyasiga

57/01

ARIZA

«ROOFMAN BROTHERS» MCHJ xaridlar jarayonining barcha bosqichlarida tashkilot va uning xodimlari tomonidan korrupsiya korinishlariga yo'l qoymasligini hamda korinishlariga oid huquqbuzarliklar sodir etilganligi malum bo'lib qolgan har qanday holat haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berilishini malum qilamiz

«ROOFMAN BROTHERS» MCHJ
Rahbari



Ernazarov Kh.A.

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA

OY5625538364

1. Loyi haning turi : Shartnoma

2. Loyi haning nomi: Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tuman tibbiyot birlashmasi hamda “Roofman brothers ” MCHJ o‘rtasida 2022-yil 22-noyabrda tuzilgan pudrat shartnomasi.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: Mirzo Ulug‘bek tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan 28.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Mirzo ulug‘bek tuman
yuridik markaz
bosh yuristkonsulti:**



M.Q.USMONALIYEV

30.11.2022